

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI

“Axborot texnologiyalari”
kafedrası



AXBOROT TIZIMLARI

**fanidan amaliy mashg'ulotlar topshiriqlari va ularni
bajarish uchun**

USLUBIY KO'RSATMA

Toshkent - 2017

Ushbu uslubiy ko'rsatma Institut Ilmiy - uslubiy Kengashining 2016 yil 28-dekabrda 7- sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

Ushbu uslubiy ko'rsatma «Axborot tizimlari» fani bo'yicha magistraturaning barcha mutaxassisliklari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda mavjud amaliy dasturlar Paketlarining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda mutaxassislik bo'yicha masalalar, topshiriqlar va ularni bajarish uchun ko'rsatmalar berilgan.



Tuzuvchilar: S.S. Mirzaev, texnika fanlari nomzodi, dotsent

G. Shadmanova, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar: O.Kenjabaev, Toshkent Moliya instituti i.f.d., professori.

M.Yusupov, f-m.f.n., dotsent.

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy axborot tizimlari tushunchasi axborotga ishlov berishning asosiy texnik vositasi sifatida shaxsiy kompyuterlardan foydalanishni ko'zda tutadi. Korxonalar (firma)larda foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan talablarini qondirish uchun yo'naltirilgan, turli maqsadlarga mo'ljallangan ko'plab axborot-ma'lumot tizimlari muvaffaqiyatli ishlab turibdi. Barcha axborot tizimlarida foydalanuvchilarning, shu jumladan hisoblash texnikasi sohasida mutaxassis bo'lmagan foydalanuvchilarning tizim bilan muomala qilish vositalarini rivojlantirib borish zarur. Shuning uchun ham bo'lajak soha mutaxassislari mavjud avtomatlashgan axborot tizimlaridan foydalana bilishlari zarurdir.

Mazkur uslubiy ko'rsatma zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalari bo'yicha magistrantlar bilimini oshirish bilan birga bu bilimlarini amaliyotga tadbiiq etishga ham xizmat qiladi. Microsoft Office (Word, Excel, Access) Pakeri dasturlarining zamonaviy versiyalari, sun'iy intellekt tizimlari, muammoli yo'naltirilgan masalalarning axborot texnologiyalari, lokal va global tarmoqlar – Internet, E-mail elektron pochta aloqa xizmati imkoniyatlaridan foydalangan holda masalalar, topshiriqlar va ularni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

